


“TASDIQLAYMAN”
“O‘ztransgaz” AJ huzuridagi
jamoatchilik kengashining raisi


L.Sharipova
2026-yil 6-aprel

“O‘ztransgaz” AJ va tizim tashkilotlarida murojaatlar bilan ishlashda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida yig‘ilishining

2-sonli BAYONI

2026-yil 6-aprel

sh. Toshkent

KUN TARTIBI:

“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash borasida 2026-yilning yanvar-mart oylarida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tahliliy

Yig‘ilishda raislik - L.Sharipova – “O‘ztransgaz” AJ huzuridagi qildi: jamoatchilik kengashining raisi;

Qatnashdilar: Jamoatchilik kengashi a‘zolari: U.Pardayev, N.Ziyodullayeva, A.Umarov, Sh.Ravshanova, Sh.Boboyev, Sh.Ulugxujayev, O‘.Ismatov, M.Kosimov, M.Magdiyeva va Sh.Abdullayeva;

Taklif kilinganlar: - S.Sidikjanova.

“O‘ztransgaz” AJ jamoatchilik kengashining 2026-yil 1-chorakda amalga oshirgan ishlari tugrisidagi yig‘ilishi Jamoatchilik kengashining raisi L.Sharipova tomonidan ochildi.

L.Sharipova jamiyatda “O‘ztransgaz” AJ Murojaatlar bilan ishlashda olib borilayotgan ishlar haqida ma’lumot berish uchun so‘zni S.Sidikjanovaga berdi.

S.Sidikjanova o‘z nutqida:

Joriy yilning mart oyida Davlatimiz rahbari raisligida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish yuzasidan bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishlarida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan yaxshilash, murojaatlar bilan ishlashda qonunchilik talablarini buzganlik uchun jazoni kuchaytirish hamda “mahalbay” ishlash orqali muammolarni joyida hal etish asosiy vazifa etib belgilangan.

Yig'ilishlarda aholi kayfiyatini o'rganish va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha quyidagilar ta'kidlangan:

- Tizimli tahlil: Murojaatlar bilan bir qatorda sotsiologik tadqiqotlar natijalaridan foydalanib, hudud va tarmoq rahbarlarining reytingi yuritiladi.

- Ijro intizomi: Har bir murojaat va topshiriq ijrosi ustidan kundalik nazorat o'rnatiladi, sustkashlikka yo'l qo'ygan rahbarlarga nisbatan choralar ko'riladi.

- Hududiy reyting: Prezident Administratsiyasi va tegishli institutlarga hududlar rahbarlarining ishini baholovchi reyting metodologiyasini ishlab chiqish topshirilgan.

Murojaatlar bilan ishlashda asos bo'lib, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya qilishga qaratilgan aniq vazifalar belgilab berildi.

"O'ztransgaz" aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2025-yilning yanvar-mart oylarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tizimli asosda tashkil etish, quyi tuzilmalarda olib borilayotgan ishlarni muntazam o'rganib borish, ularga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish, murojaatlarga sabab bo'layotgan omillarni tahlil etish va ularni bartaraf etish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasiga aholidan ko'plab murojaatlar tushishining oldini olish maqsadida aksiyadorlik jamiyatning barcha magistral gaz quvurlari boshqarmalarida faoliyat ko'rsatayotgan "fuqarolar qabulxonalari"da aholi uchun shart-sharoitlar tashkil etilgan, jumladan kirish yo'llari, asosiy kirish joyi, panduslar, fuqarolarni qabul qilish xonalariga ega bo'lishi ta'minlangan.

2026-yilning yanvar-mart oylarida mutaxassislar tomonidan "O'ztransgaz" aksiyadorlik jamiyatining tarkibiy tuzilmalariga chiqib murojaatlarda tez-tez ko'tariladigan muammoli masalalar bo'yicha tahlillar o'tkazish, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va qoidabuzarliklarning sabablarini bartaraf etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishining oldini olish choralari ko'rish maqsadida o'rganishlar o'tkazildi, ularga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatildi.

Joylarda o'tkazilgan o'rganishlarda murojaatlar bilan bevosita ishlaydigan mas'ul xodimlarga O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunning mazmun va mohiyatini yetkazish choralari ko'rildi.

Hisobot davrida o'rganish natijalari bo'yicha tasdiqlangan dasturlar asosida "O'ztransgaz" AJ mas'ul xodimlari tomonidan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan qoida va talablarning mazmun va mohiyatini to'liq tushunib olish, amaliyotda keng va samarali qo'llash mavzusida o'tkazilgan o'rganishlar soni 1 marotaba hamda seminar mashg'ulotlari soni bir bor o'tkazilgan.

2026-yilning yanvar-mart oylarida:

O'tkazilgan ushbu sayyor qabullarda "O'ztransgaz" AJ markaziy apparati, uning quyi korxonalar va tashkilotlariga jismoniy va yuridik shaxslardan jami 114 ta og'zaki murojaatlar tushgan bo'lib, ko'tarilgan muammoli masalalar joyida mutaxassislar tomonidan hal etildi.

"O'ztransgaz" AJ boshqaruv raisi, o'rinbosarlari, markaziy apparati mutaxassislar va uning quyi korxonalar va tashkilotlari tomonidan bevosita aksiyadorlik jamiyatida shaxsiy qabullarda 63 nafar shaxslar qabul qilingan

"O'ztransgaz" AJ markaziy apparati, uning quyi korxonalar va tashkilotlariga jismoniy va yuridik shaxslardan 121 tasi bevosita yozma, 114 ta shaxsiy va sayyor og'zaki qabullarda, 51 ta elektron pochta, 5 ta og'zaki telefon, 46 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlarning ko'rib chiqilishi to'liq nazoratga olinib, 299 tasi qanoatlantirilgan, 2 tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 11 tasi tegishliligi bo'yicha boshqa tashkilotga yuborilgan va 25 tasi o'rganish jarayonida.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda kamchilik va qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'ygan rahbar va mas'ul xodimlarga nisbatan javobgarlik choralari ko'rilishi ta'minlanmoqda.

"O'ztransgaz" AJ tomonidan 2026-yilning yanvar-dekabr oylarida murojaatlar ko'rib chiqish natijalari bo'yicha OAVda 9 marta chiqish amalga oshirilgan. Jumladan, aksiyadorlik jamiyati veb-saytida 9 bor chiqishlar tashkil etilgan.

2026-yilning yanvar-dekabr oylarida "O'ztransgaz" AJ markaziy apparati, uning quyi korxonalar va tashkilotlarida jismoniy va yuridik shaxslar bilan bevosita ishlash, ularning muammolarini aniqlash va hal qilishni nazarda tutuvchi tizimda faoliyat ko'rsatish choralari ko'rildi.

Kun tartibida belgilangan masalalar bo'yicha jamoatchilik kengashi a'zolar takliflari va mulohazalari tinglandi.

1. Komplayens-nazorat bo'limi tomonidan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tizimining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 419-sonli Qonuni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli Farmoni va PQ-147-sonli Qaroriga asoslanadi. Ushbu hujjatlarga muvofiq, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab olindi hamda ularning mazmun-mohiyati jamoatchilik kengashi a'zolariga tushuntirib borildi.

Bundan tashqari, Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-81-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2022-yil 11-maydagi PQ-240-sonli "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari talablariga muvofiq amalga oshirilmoqda. Bajarilgan ishlar natijalari o'z vaqtida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining e-anticor.uz platformasiga kiritib borilmoqda.

Komplayens-nazorat bo'limi tomonidan Jamiyatning rasmiy veb-saytlarida korrupsiyaga qarshi targ'ibot materiallari, xabarlar hamda amalga oshirilgan tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlar muntazam joylashtirib borilmoqda.

2025-yil 26-dekabr kuni Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek: "Korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdiddir."

Murojaatnomada ushbu illatga qarshi kurashish muhim yo'nalish sifatida belgilab, 2026-yilda korrupsiyaga qarshi "favqulodda holat" e'lon qilinishi qayd etildi.

Ushbu doirada komplayens tizimi nopok shaxslarni aniqlash, byudjet va davlat tashkilot mablag'larining talon-toroj qilinishi hamda mansabni suiiste'mol qilish holatlarining oldini olish bo'yicha ta'sirchan nazorat mexanizmlarini joriy etadi. Davlatning har bir so'm mablag'i va resursi bo'yicha shaxsiy javobgarlik kuchaytiriladi.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrdagi PF-270-sonli Farmoniga asosan, joriy yilda "O'ztransgaz" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq ravishda "favqulodda holat" rejimida amalga oshiriladi. Unga muvofiq, 2026-yilning birinchi 100 kuni Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida favqulodda va tezkor choralar davri sifatida belgilanadi.

Xotlayn va xabar beruvchilarni himoya qilish. Xotlayn tizimi yana-da kuchaytiriladi. 2026-yil yanvar oyidan boshlab maxfiy murojaat kanallari, jumladan qisqa raqamlar ishga tushiriladi. Ushbu kanallar orqali kelib tushgan xabarlar tezkor tarzda ko'rib chiqiladi, xabar beruvchilar (whistleblower)ning himoyasi ta'minlanadi;

Korrupsiyaga qarshi madaniyat va jamoatchilik nazorati. Korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish maqsadida xodimlar uchun qo'shimcha o'quvlar tashkil etiladi, jamoatchilik bilan ochiq muloqot kuchaytiriladi hamda tarkibiy tuzilmalarda shaffoflikka qaratilgan tadbirlar o'tkaziladi.

2. Yuridik bo'lim boshlig'i Sh.Ulugxujayev tomonidan Advokat so'rovi to'g'risidagi nutqi tinglandi.

Advokat davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga mazkur organlar hamda tashkilotlarning vakolatlariga

kiradigan masalalar yuzasidan advokat tomonidan malakali yuridik yordam ko'rsatilishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni (bundan buyon matnda axborot (hujjatlar) deb yuritiladi) taqdim etish masalalari yuzasidan advokat so'rovini (bundan buyon matnda advokat so'rovi deb yuritiladi) yuborishga haqli.

Agar davlat organi yoki boshqa organ, shuningdek korxonalar, muassasa, tashkilot so'ralayotgan axborotga (hujjatlarga) ega bo'lmasa, ular o'zlariga murojaat etgan advokatga so'rov olingan sanadan e'tiboran besh kundan kechiktirmay bu haqda xabar qilishi shart.

Advokat tomonidan ish bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi boshlanganligi to'g'risida dalolat beradigan hujjat taqdim etilgan taqdirda, so'rovda ko'rsatilgan axborot (hujjatlar) uch ish kunidan kechiktirmay taqdim etilishi kerak.

Advokat so'rovida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

so'rov yuborilayotgan davlat organi yoki boshqa organning, shuningdek korxonalar, muassasa, tashkilotning nomi va pochta manzili;

advokatning familiyasi, ismi, otasining ismi;

advokat o'z faoliyatini amalga oshirayotgan advokatlik tuzilmasining nomi, pochta manzili, elektron pochta manzili, telefon raqami;

advokat so'rovini qayd etish daftaridagi advokat so'rovining ro'yxatdan o'tkazilganlik raqami va sanasi;

advokat kimning manfaatlarini ko'zlab harakat qilayotgan bo'lsa, o'sha jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi yoki yuridik shaxsning nomi;

yuridik yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan axborot (hujjatlar);

so'ralayotgan axborotni (hujjatlarni) berish usuli (pochta jo'natmasi, faksimil aloqa, elektron pochta, bevosita topshirish);

advokatning imzosi.

Agar advokatlik so'rovini olgan subyektlar so'ralayotgan axborotga (hujjatlarga) ega bo'lmasa yoki ma'lumotlarda davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir mavjud bo'lsa, shuningdek advokat so'rovida ushbu moddaning beshinchi va oltinchi qismlarida nazarda tutilgan axborot (hujjatlar) ko'rsatilmagan bo'lsa, so'ralayotgan axborotni (hujjatlarni) advokatga taqdim etish rad etilishi mumkin.

Advokat so'rovi advokatlik siriga rioya etilgan holda axborot tizimi orqali elektron shaklda ham berilishi mumkin.

Advokat so'roviga axborotni (hujjatlarni) taqdim etmaslik, o'z vaqtida taqdim etmaslik yoxud bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborot (hujjatlar) taqdim etganlik qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

3. Boshqaruvi raisining ishonchli vakili Sh. Boboyev tomonidan "O'ztransgaz" AJ boshqaruv raisi hamda uning o'rinbosarining Jamiyat tizimida o'tkaziladigan sayyor qabullari tasdiqlangan grafiklari asosida davom etmoqda.

Hisobot davrida ishchi guruhlar tomonidan respublikaning barcha tuman va shaharlarida jami 5 ta sayyor qabul o'tkazildi. Jumladan, Andijon viloyatida 1 bor, Samarqand viloyatida 1 bor, Farg'ona viloyatida 1 bor, Xorazm viloyatida 1 marotaba.

Ommaviy va sayyor qabullar davomida murojaat qilayotgan fuqarolar muammolarini hal etishga alohida e'tibor qaratilib, qabullarning natijadorligiga erishish, murojaatlarni xolis va tezkor ko'rib chiqishga qaratilgan aniq choralar ko'rildi.

Qabullar davomida Jamiyat tizimida olib borilayotgan transformatsiya jarayonlari muhokama qilindi. Ishchi-xodimlar joriy yilning may oyidan boshlab qorovul xizmati hamda ma'muriy-xo'jalik yo'nalishlari outsorsingga o'tkazilishi munosabati bilan mavjud mehnat munosabatlarini saqlab qolish masalasi ko'tarildi.

Ushbu yo'nalishda ishchilarga boshqarmalarda mavjud bo'sh o'rinlar haqida taklif berilgani ta'kidlandi. Bu borada xodimlarning huquq va kafolatlari, mehnat shartnomalarini qayta ko'rib chiqish tartibi, yangi ish beruvchi bilan munosabatlarni rasmiylashtirish mexanizmlari yuzasidan batafsil huquqiy ma'lumot va tushuntirishlar berildi.

Ommaviy qabul mexanizmi esa joylardagi muammolarni tezkor aniqlash, xodimlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish va asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilishning samarali platformasi sifatida izchil rivojlantirilmoqda.

Kun tartibida belgilangan masalalar bo'yicha jamoatchilik kengashi a'zolar takliflari va mulohazalari tinglanganidan so'ng, Jamoatchilik kengash raisi L. Sharipova muhokama va takliflarni inobatga olgan holda **"O'ztransgaz" aksiyadorlik jamiyati tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash borasida 2026-yilning yanvar-mart oylarida amalga oshirilgan ishlar** ijobiy bajarilganligi tasdiqlanishini so'radi. Kengash a'zolari bir ovozdan ish rejani ijobiy bajarilganligini tasdiqlashdi. Qarshilar va betaraflar yo'q.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "O'ztransgaz" AJ jamoatchilik kengashi kun tartibiga doir masalalarni atroflicha muhokama qilib qaror qiladi:

1. **"O'ztransgaz" AJ va tizim tashkilotlarida murojaatlar bilan ishlashda amalga oshirilgan ishlar** bajarilganligi ijobiy deb baholansin.

2. Jamoatchilik kengashining 2026-yil uchun belgilangan ish rejasining kelgusidagi choraklarda belgilangan yo'nalishlar ijrosiga alohida e'tibor berilishi inobatga olinsin.

Kotib:



S. Sidikjonova